

оқыўшыларға берилетуғын билимнің сыпаты артып оларды пәнге болған қызығыўшылығын арттырып барыўына тийкар жаратады. Соның менен бирге, оқыўшының билимге болған қызығыўшылығын арттырып, олардың хәрекетлерин раўажландырады.

Жуўмаклап айтатуғын болсақ, бүгинги күни оқыўшыларға тереңирек билим беріў ушын, оқытыўшының заман талаплары дәрежесинде билимге ийе болыўы, билимлендириў тараўына енгизилген педагогикалық технологиялар тийкарында теориялық билимлер менен бирге әмелий көнликпелерге ийе болыўы мақсетке муўапық деп есаплаймыз.

Әдебиятлар

1. Мирзиёев Ш.М. «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови» мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. -Т.: «Ўзбекистон», 2017.
2. Умумий ўрта таълимда география фанини ўқитиш методикаси (методик қўлланма). –Тошкент: 2020.
3. Соатов А., Абдулқосимов А., Миракмалов М. География (материклер ҳам океанлар табиий географиясы). –Т.: 2017.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада педагогик технология ва интерфаол методлар ҳақида назарий ва амалий маълуматлар берилган. Интерфаол методлар орқали география дарсларида ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малака компетенцияларини шакллантириш усуллари келтириб ўтилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены теоретические и практические информации о интерактивных и педагогических технологиях. Приводятся методы для формирования компетенции такие как знание, умение и навыки с помощью интерактивных методов на уроках географии.

SUMMARY

This article is about the theoretical and practical information about interactive and pedagogical technologies. The techniques for the formation of competence are given, such as knowledge, ability and skills by using interactive methods in geography lessons. The article analyzes the advantages of pedagogical technologies and the use of interactive methods in geography lessons.

UDK: 138.37

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH SINOV-TAJRIBA ISHALARI

I.Yu.Madatov – *mustaqil izlanuvchi*

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: an'anaviy ta'lim, model, blended learning, aralash ta'lim, elektron ta'lim, on-line muloqot, virtual sinf, faol talaba, texnologiya, kompyuter.

Ключевые слова: традиционное образование, модель, смешанное обучение, смешанное образование, электронное обучение, онлайн-общение, виртуальный класс, активный ученик, технология, компьютер.

Key words: traditional education, model, blended learning, mixed education, e-learning, online communication, virtual classroom, active student, technology, computer.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashkarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim.

Biz tajriba o'tkazish uchun Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani doirasida mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini aniqladik.

Namumaviy va o'quv rejasi bo'yicha Pedagogika nazariyasi va tarixi faniga 2018-2019 o'quv yilining I semestri bo'yicha jami 156 soat ajratilgan bo'lib shundan, 20 soat

maruza, 40 soat amaliy, 96 soat mustaqil ta'lim uchun rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 05.06.2018 yildagi PQ – 3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlatkada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" qarori bo'yicha ishlab chiqilgan yangi nizom bo'yicha 2018-2019 o'quv yilidan boshlab qabul qilingan 1-kurs talabalariga haftasiga 5 kunlik dars mashg'ulotlari o'tkazilishi va 1 kun talabalarining mustaqil izlanishlari uchun ajratilgan bo'lib, talaba mustaqil izlanishga vaqtini samarali sarflashi va o'z ustida yanada ko'proq ishlashi uchun joriy qilingandir.

Shuni o'zi ham talabalarda mustaqil ta'lim olish jarayoni, adabiyotlar bilan ishlash, vaqtini teng taqsimlash kabi masalalarga aloxida e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatadi.

Blended learning (aralash ta'lim) kopsepsiyasi doirasida pedagogika nazariyasi va tarixi fanining mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarini o'zlashtirish, pedagogika tarixi va nazariyasi fanini kengroq va chuqurroq o'rganish maqsadida biz dissertatsiyaning amaliy natijasi sifatida "Pedagogika" deb nomlangan mobil dastur (ilova) yaratdik ushbu dastur orqali o'rganilgandan keyin olingan natijalardan avval talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini aniqlab olamiz.

Biz oliy ta'limning pedagogik ta'limi yo'nalishida pedagogika nazariyasi va tarixi fani bo'yicha talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish texnologiyasi samaradorligini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalar asosida 2018-2019 yillarda Pedagogika fakultetini "Pedagogika va Psixologiya" yo'nalishida pedagogik tajribalar o'tkazdik.

Tajriba-sinovlar bevosita fakultetda talabalar bilan ta'limining tabiiy sharoitlarida olib borildi. Pedagogik tajri-

ba-sinov ishlarini olib borishda Samarqand davlat universiteti 5110900 – « Pedagogika va Psixologiya » bakalavriat ta'lim yo'nalishi guruhlarida olib borildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2018-2019 yillar davomida quyidagi uch bosqichda olib borildi.

Birinchi o'rganuv bosqichida (2018-2019 yillar) muammoning amaldagi holati o'rganildi. Buning uchun o'quv me'yoriy hujjatlar, ilmiy manbalar va amaliyot tahlil etilib, maqsad va unga erishish uchun echimini topish lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Birinchi bosqich talabalarining mustaqil ishini bajarishga tayyorgarligining dastlabki - umumta'lim holati va talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatiga munosabati so'rovnoma asosida o'rganildi. Bunda uch blokdan iborat so'rovnoma tuzilib, birinchi blokda talabalarining «Pedagogika nazariyasi va tarixi» faniga qiziqishlari, mustaqil ta'limga munosabatlari bilan bog'liq savollar o'rin olgan.

Ikkinchi blokda tadqiqotimizning ikkinchi yo'nalishi bilan bog'liq savollar - mustaqil ta'lim olishga munosabatlarini o'rganish savollari o'rin oldi.

Uchinchi blokda esa mustaqil ta'lim olish faoliyatiga xalaqit beruvchi omillarni aniqlash bilan bog'liq savollar o'rin oldi. 57 Bakalavriat ta'limi yo'nalishida Pedagogika nazariyasi va tarixi fani bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar, uslubiy qo'llanmalarni tahlil qilish, talabalarining mustaqil ishga tayyorgarlik darajasini tekshirish o'tkazildi. Natijalarni matematik statistik tahlil qilish qo'llanildi.

Ikkinchi (shakllantiruvchi tajribaviy ta'lim) bosqichi (2018-2019 o'quv yili)da magistrant tomonidan ishlab chiqilgan shakllantiruv tajribaviy ta'lim uchun mobil ilova (dastur) asosida mustaqil ta'lim olib borildi. Tajribaviy mobil dastur ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajribaviy ta'limlar asosan Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakultetining 1-bosqich "Pedagogika va psixologiya" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini bilan o'tkazildi. Tajriba sinov ishlarini o'tkazish uchun ikkita parallel guruh – tajriba - sinov guruhi (TSG) va nazorat guruhi (NG) ajratib olindi. Yozma va ijodiy ishlar, o'qituvchilar bilan suhbatlar asosida tajriba - sinov va nazorat guruhlarini uchun taxminan bir xil mustaqil ishlarni bajarish uchun tayyorgarlikka ega bo'lgan guruhlar olindi. Parallel guruhlariga dars beruvchi

o'qituvchilarning ham nazariy va uslubiy tayyorgarligi taxminan bir xilligi ta'minlandi. Tadqiqot jarayonida talabalarining mustaqil ta'lim olish tayyorgarligining asosini tashkil etuvchi fan – pedagogika nazariyasi va tarixi bo'yicha ishlab chiqilgan mustaqil ta'limni olish mobil ilova va mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalar samaradorligini tekshirish ishlari shaxsan tadqiqotchi tomonidan o'tkazildi.

Bundan tashqari Shu mavzu bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan malakalarni o'zida aks ettirgan topshiriq variantlari berildi.

Uchinchi (yakuniy) bosqich (2019 yil)da shakllantiruv tajriba-sinov ishlarining natijalari umumlashtirildi, matematik statistikada qayta ishlandi va tahlil qilindi. Natija va xulosalar magistrlik dissertatsiya shaklida rasmiylashtirildi. Tajribaviy ta'lim uchun ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalarining mohiyati quyidagilardan iborat: -ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda talabalarining mustaqil ta'lim olishga ishtiyoq uyg'otishga e'tibor berilishi; - talabalarining o'quv topshiriqlarni mustaqil bajarishi uchun o'rganuvchi va nazorat testlarning tuzilishi va ularni bajargandan keyin natijalarni berilishi; -talabalar mustaqil ishlarni bajarishda qo'shimcha ravishda foydalanish uchun zaruriy adabiyotlarning tavsiya etilishi. Bu oliy o'quv yurtning "Pedagogika va psixologiya" bakalavriat ta'lim yo'nalishida "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanining mustaqil ta'limini tashkil qilish bo'yicha biz ishlab chiqqan metodika samaradorligini baholash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlarining I – bosqichida 21 nafar, II - bosqichda 17 nafar talaba ishtirok etdi. Jami 38 ta talaba qatnashdi. Birinchi va ikkinchi bosqich (tajriba boshi)da tajriba – sinov ishlarining predmeti bilan bog'liq bo'lgan savollar bo'yicha birinchi bosqich talabalarini bilan ularning umumta'lim maktabida va kollejlarda egallagan pedagogik bilim va malakalarining darajasini aniqlash va mustaqil ta'lim olish faoliyatga munosabatlarini aniqlash uchun so'rovnoma va test savollari, tekshirish ishlari olib borildi.

Olib borilgan o'rganuv tajriba-sinov ishlari bosqichining tajriba va nazorat guruhlarida talabalarining ijodiy tayyorgarligi holatini aniqlashga imkon berdi va quyidagicha natijani ko'rsatdi.

Talabalarining mustaqil ta'limga tayyorgarlik darajasining dastlabki holati

3.1 jadval

Tajriba bosqichi	Talabalar soni		Daraja (o'zlashtirish)	I guruh (TG)	II guruh (NG)
	Tajriba guruhida	Nazorat guruhida			
I bosqich: 2018-2019 o'quv yili (Tajriba boshida)	34	32	Eng yuqori (a'lo)	3 (7,6 %)	2 (5,4 %)
			Yuqori (yaxshi)	10 (29,1 %)	11 (35,1 %)
			O'rta (qoniqarli)	20 (63,3 %)	19 (59,5 %)

Tadqiqot davomida dars yoki mustaqil ish uchun maqsadga yo'naltirilgan mazmunni tanlash, o'qituvchilarning o'quv materialini talabaga etkazib berish usullarini ko'rsatish, tahlil qilish, talaba olgan bilimni amaliyot darslarida qo'llay olishi ko'rsatmalar asosida bajarildi. Tajriba oxirida talabalardan "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanidan amaliy nazorat ishlari va savolnomalardan yakuniy nazorat qabul qilindi

Talabalarining ijodiy tayyorgarlik darajasining II bosqich ko'rsatkichlari

3.2-jadval

Tajriba bosqichi	Talabalar soni		Daraja (o'zlashtirish)	I guruh (TG)	II guruh (NG)
	Tajriba guruhida	Nazorat guruhida			
I bosqich: 2018-2019 o'quv yili (Tajriba boshida)	34	32	Eng yuqori (a'lo)	8 (7,6 %)	2 (5,4 %)
			Yuqori (yaxshi)	11 (29,1 %)	10 (35,1 %)
			O'rta (qoniqarli)	15 (63,3 %)	20 (59,5 %)

Eng yuqori (a'lo) darajaga (86 dan 100 gacha ball to'plaganlar) – berilgan muammoli masalalarni echish yo'llarini to'liq o'zlashtirgan (mustaqil bajara oladigan) hamda bilim va malakalarni to'liq o'zlashtirgan talabalar kiritildi.

Yuqori (yaxshi) darajaga (71 dan 85 gacha) – masalalarni echish yo'llarini o'zlashtirgan hamda bilim va malakalarni o'zlashtirgan, ammo dars jarayonida ko'rsatilgan qo'yilma masalalarnigina echa oladigan talabalar kiritildi.

O'rta (qoniqarli) daraja (56 balidan 70 ballgacha) – qo'yilgan buyumlar va narsalar haqida tasavvurga ega, konstruktiv qurish usullarida kompozitsion masalalarni echishni o'zlashtirgan hamda bilim va malakalarni o'zlashtirgan, ammo dars jarayonida ko'rsatilgan topshiriq masalalarini echa oladigan, mustaqil ravishda masalalar echishga qiynaladigan talabalar kiritildi. shuningdek 56 ballgacha to'plaganlar ham shartli ravishda qoniqarli o'zlashtirgan talabalar safiga kiritildi.

Tadqiqot jarayonida guruhdagi talabalarning Davlat ta'lim standartlari talabalariga javob berishi hisobga olindi. Tajriba-sinov asosida pedagogika darslarida talabalarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltirishni texnologik yondoshuv asosida olib borish samaradorligini aniqlash uchun talabalardan olingan yakuniy nazorat natijalari sifat va miqdor bo'yicha tahlil qilindi. Tajriba-sinov jarayonida mustaqil ta'lim olish faoliyatining samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy adabiyotlar o'rganib chiqildi va tajriba-sinov natijalariga tatbiq qilindi.

Endi pedagogik tajriba-sinov natijalarini son va sifat jihatdan tahlil qilamiz. Tajriba-sinov natijalarini qayta ishlash jarayonida matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Yuqorida keltirilgan 3.1. va 3.2. jadvallardagi sonli ma'lumotlarni matematik statistika usullaridan foydalanib, chuqur qiyosiy tahlil qilaylik. Biz bu maqsadda quyidagi belgilanish va formulalardan foydalanamiz. Har bir bosqich uchun «Pedagogika nazariyasi va tarixi» fani bo'yicha sonli ma'lumotlar olingan. Bu ma'lumotlar asosida quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

Belgilashlar:

x_i – tajriba guruhiga mos keladigan baholar

y_i – nazorat guruhiga mos keluvchi baholar.

$$i = \eta = \frac{x_0}{y_0}$$

Talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida talabalar bilim darajasi dinamikasining o'zgarishi (son va % hisobida)

x va u – tajriba va nazorat guruhlariga uchun mos keladigan o'rtacha arifmetik qiymatlar.

$$x = \frac{\sum x_i n_i}{n}; \quad y = \frac{\sum y_i m_i}{m};$$

Bu erda: x_i , y_i – «a'lo» (5), «yaxshi» (4) va «o'rta» (3) qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

n , m – nazorat va tajriba guruhidagi talabalar soni.

O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlariga baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya'ni samaradorlik koefitsienti quyidagicha olindi:

$$\eta = \frac{x}{y} \quad (2)$$

O'rtacha kvadratik og'ish kattaliklari:

$$s_x^2 = \frac{1}{n} \sum_i n_i * (x_i - x)^2 \quad (3)$$

Standart og'ish kattaliklari:

$$s_x = \sqrt{s_x^2}; \quad s_y = \sqrt{s_y^2} \quad (4)$$

O'rtacha qiymatlarni aniqlash ko'rsatkichi:

$$C_x = \frac{s}{\sqrt{n*x}} * 100\%; \quad C_y = \frac{s}{\sqrt{m*x}} * 100\%; \quad (5)$$

Bosh to'plamning noma'lum o'rta qiymatlari uchun ishonch oraliqlari:

$$a_x \in \left[x - \frac{t}{\sqrt{n}} * S_x; x + \frac{t}{\sqrt{n}} * S_x \right] \quad (6)$$

$$a_y \in \left[y - \frac{t}{\sqrt{m}} * S_y; y + \frac{t}{\sqrt{m}} * S_y \right]$$

Bu erda: t – normallashtirilgan chetlanish ishonch ehtimoli R asosida aniqlanadi. Masalan, R q 0,95 da t q 1,96 ga teng.

Biz o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi $H_0: a_x \neq a_y$ gipotezani ilgari surib, unga qarama - qarshi $H_1: a_x \neq a_y$ ekanligini yuqoridagi ma'lumotlar asosida student statistikasi orqali tekshiramiz.

$$T_{m_1 n} = \frac{(y - x)}{\sqrt{\frac{s_x^2}{n} + \frac{s_y^2}{m}}} \quad (7)$$

Agar $T > T_r$ q t bo'lsa, N_0 gipoteza rad etilib, N_1 gipoteza olinadi.

Biz quyida ushbu ma'lumotlarga asoslanib, har bir bosqich uchun hisob ishlarini olib boramiz va ularni qiyosiy tahlilini jadval orqali keltiramiz.

Ushbu tadqiqotda baholash tizimining boshlang'ich bahosi tajriba boshida olib borilib, talabalardan umumta'lim maktablarida olgan bilimlari va semestr davomida olgan boshlang'ich bilimlari asosida test orqali baholandi. Tajriba oxirida esa fanning jami mavzulari bo'yicha ijodiy-yozma va ogzaki baholash bo'yicha talabalar bilimi aniqlandi.

Demak, tajriba-sinov guruhida olib borilgan mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirishga asoslangan texnologiya nazorat guruhida olib borilgan an'anaviy mashg'ulotga nisbatan samarali ekanligi tasdiqlandi.

Adabiyotlar

1. Saidov M. X., Peregudov L. V., Tohirov3. T. Oliy ta'lim (lug'at-ma'lumotnoma). —T.: «Moliya» nashriyoti, 2003, 456-b.
2. Лопаткин В.М., Каракозов С.Д., Куликова Л.Г., Скурыдина Е.М. Образовательные возможности электронной обучающей системы в подготовке бакалавров преподавательского образования // Мир науки, культуры, образования. 2013 № 3 (40).
3. O'roqov Sh.R Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati.- Samarqand: 2018.
4. Xamidov V.S. Talim tizimida keskin burilishga sabab bo'lgan 4 dastur haqida <http://uz.infocom.uz/2009/12/21/talim-tizimida-keskin-burilishga-sabab-bolgan-4-dastur-haqida/>
5. Григорев С.Г., Андриускова О.В. Критерии эффективного использования Blended Learning. Информатика и образование. 2016. №8 –С.16-19

REZYUME

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalari mustaqil ta'lim olish jarayoni, mazmuni, shakli, innovatsion shakllari hamda blended learning texnologiyasi haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari so'rovnomma va sinov tajriba ishalaridan namunalar keltirib blended learning texnologiyasi samarasi asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются процесс, содержание, форма, инновационные формы и смешанные технологии обучения студентов высших учебных заведений. Он также основан на эффективности технологии смешанного обучения с примерами из анкет и экспериментальной работы.

SUMMARY

This article discusses the process, content, form, innovative forms, and blended learning technology of higher education students. It is also based on the effectiveness of blended learning technology, with examples from questionnaires and experimental work.